



DAVLAT BUDJETI XARAJATLAR IJROSI VA UNDA DAVLAT XARIDLARINING O'RNI

EXECUTION OF STATE BUDGET EXPENDITURES AND THE ROLE OF PUBLIC PROCUREMENT THEREIN

¹**Suttibaev Behzod
Eshboevich**

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada davlat budjeti xarajatlari ijrosida davlat xaridlari amaliyoti, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, davlat xaridlarini amalga oshirishda qo'llanilayotgan usullar hamda mexanizmlar yoritilgan. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda davlat xaridlari orqali budjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish tajribasi, amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Jahon mamlakatlari tajribasi bilan solishtirma tahlil asosida O'zbekiston amaliyotida davlat xaridlarini yanada takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article explores the practice of public procurement in the execution of the state budget expenditures, its economic and social significance, as well as the methods and mechanisms applied in the implementation of public procurement. It also highlights the experience of ensuring the targeted and efficient use of budget funds through public procurement in the national economy, identifies existing challenges in practice, and proposes solutions to address them. Based on a comparative analysis of international experience, the article presents conclusions and recommendations for further improving public procurement practices in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *davlat budjeti, davlat xaridlari amaliyoti, budjet xarajatlari ijrosi, iqtisodiy samaradorlik, tender jarayonlari, shaffoflik, davlat moliyasi, milliy tajriba, xalqaro amaliyot, elektron xaridlar.*

❖ *state budget, public procurement practice, execution of budget expenditures, economic efficiency, tender processes, transparency, public finance, national experience, international practice, e-procurement.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti mablag'larining oqilona sarflanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Davlat xaridlari – budjet mablag'laridan foydalanishning eng muhim mexanizmlaridan biri bo'lib, ular iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat xaridlari amaliyoti orqali

shaffoflikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va korrupsion omillarni kamaytirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, davlat xaridlarining samarali yo'lga qo'yilishi nafaqat budjet mablag'laridan oqilona foydalanish, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda davlat moliyasi tizimining samaradorligini ta'minlashda davlat budjeti xarajatlarini maqsadli va oqilona yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan davlat xaridlari amaliyoti davlat budjeti ijrosining

asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Davlat xaridlari orqali budjet mablag'lari eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga yo'naltiriladi, bu esa davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, davlat xaridlari tizimining shaffof va raqobatbardosh bo'lishi korrupsiya xavfini kamaytiradi hamda iqtisodiyotda sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda elektron davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, tender jarayonlarini ochiq va shaffof o'tkazishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash bilan birga, tadbirkorlik subyektlariga teng imkoniyat yaratishga xizmat qilmoqda. Davlat budjeti xarajatlar ijrosida davlat xaridlari amaliyotini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqotlar davlat mablag'larini boshqarish tizimini takomillashtirish, sarflanadigan mablag'lar samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlat budjet mablag'lari jamg'arilishining ahamiyatligi bo'yicha I.Xajduchova, M. Sedliachikova, I. Vizslaix [1] tomonidan "Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti xarajatlari va daromadlariga ta'siri" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjetiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari o'zgarishi tovar va xizmatlar narxlari hamda budjet daromadlariga ta'sir qilgani qayd etilgan.

Jamiyat taraqqiyotida davlatning roli to'g'risidagi masala mumtoz siyosiy iqtisod asoschilari bo'lgan A.Smit (1723-1780), D.Rikardo (1772-1823) hamda ingliz iqtisodchisi J.Keyns (1883-1946) va ularning izdoshlari tomonidan nazorat jihatdan

asoslangan. A.Smit va D.Rikardolar konsepsiyalarini mohiyati davlat iqtisodiyotga aralashmaslik, erkin raqobatni saqlash va jamiyatni xo'jalik faoliyatini tartibga solishda bozor mexanizmlariga amal qilishi kerakligiga asoslangan. Ana shu prinsiplarni inobatga olgan holda moliyaviy siyosat XX asrning 20-yillari oxiriga qadar davlat xarajatlari va soliqlarni cheklashga, davlatning (balanslashtirilgan budjetini ta'minlashga qaratilgan edi). Shu maqsadlarga muvofiq ravishda moliyaviy munosabatlarni tashkil etish asosan harbiy boshqaruv va davlat qarzini qaytarish bilan bog'liq xarajatlar budjetdan moliyalashtirilishi ta'minlandi [2].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan professor T.Malikovning fikricha: "Davlat qonuni yaratuvchi va ularning bajarilishini nazorat qiluvchi organ hisoblanar ekan, u moliyaviy tizimni tartibga solish bo'yicha to'liq javobgardir [3]". Bundan shu ma'lum bo'ladiki, moliya tizimining asosiy taqsimlash (qayta taqsimlash) va nazorat qilish funksiyasini olib borilishida davlat budjetining bevosita va bilvosita aralashuvi mavjudligi mazkur fikrning muhimligini ifodalab keladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqoladavlat budjeti mablag'laridan samarali foydalanish va davlat xaridlari tizimining iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish maqsadida qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotda asosan quyidagi metodlardan foydalanildi:

Mantiqiy tahlil va induksiya-deduksiya usuli — davlat xaridlari tizimining nazariy asoslari, ularning iqtisodiy tizimdagi roli va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Taqqoslama tahlil usuli — O'zbekistondagi davlat xaridlari amaliyoti xorijiy davlatlar (Buyuk Britaniya, Chexiya, Koreya Respublikasi) tajribasi bilan solishtirildi.

Tizimli yondashuv usuli — davlat xaridlari jarayonining barcha bosqichlari

(rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat va hisobot) o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

Iqtisodiy-statistik tahlil usuli — davlat budjeti xarajatlari, xaridlar hajmi va tender samaradorligi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar tahlil etildi.

Ilmiy manbalar tahlili (kontent tahlil) — I.Xajduchova, M.Sedliachikova, T.Malikov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari asosida davlat moliyasi va xaridlar tizimiga oid nazariy asoslar umumlashtirildi.

Ushbu metodlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minladi va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat budjetining kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatiga yo'naltirilgan xarajatlari bozor munosabatlarini rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, davlat xaridlari tizimining samaradorligi kichik va o'rta biznes subyektlarining bozorga kirishini osonlashtirish hamda davlat budjetidan moliyalashtiriladigan loyihalarda shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xaridlari tizimi uchta asosiy nazariy yo'nalishga tayanadi:

- iqtisodiy samaradorlik;
- ijtimoiy tenglik;
- huquqiy kafolatlar.

Davlat xaridlari - bu davlat tomonidan tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish jarayonidir, va bu xaridlar uchun mablag'lar davlat budjetidan ajratiladi. Shu bois, davlat xaridlari davlat budjeti xarajatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat xaridlari orqali budget mablag'laridan samarali foydalanish ta'minlanadi. Bu jarayonda tovarlar, ishlar va xizmatlarning sifati va narxi jihatidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali davlat mablag'larining tejamkorlik bilan sarflanishiga erishiladi.

Davlat xaridlari davlat tomonidan sanoatning muayyan sohalarini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ish o'rinlarini yaratish uchun imkoniyat yaratadi.

Davlat xaridlari orqali yo'llar, binolar, sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalari kabi muhim infratuzilma obyektlarini bunyod etish va ta'mirlash amalga oshiriladi, bu esa aholining turmush sifatini oshirishga olib keladi.

1-jadval

Davlat budjeti xarajatlari (mlrd. so'm) [4]

II. Xarajatlar (maqsadli jamg'armalarsiz) - jami		2021	2022	2023	2024	2025-y. 1-ch.
		188 257,1	236 692,0	281 097,4	310 927,4	70 339,6
1.	Ijtimoiy xarajatlar	92 013,6	117 691,9	137 246,8	152 347,6	33 919,7
1.1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari. Shundan:	80 671,8	105 589,1	122 348,7	134 666,6	30 357,8
1.1.1	ta'lim	39 640,8	50 271,3	61 220,3	71 240,5	16 012,1
1.1.2	sog'liqni saqlash	23 316,8	27 288,3	11 723,0	36 036,4	7 880,5
1.1.3	madaniyat va sport	3 609,5	4 289,6	5 330,2	5 970,8	1 176,5
1.1.4	fan	1 081,1	1 447,1	1 774,1	1 967,7	427,2
1.1.5	nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	10 880,3	19 397,1	19 209,7	15 422,7	4 308,7
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	21 169,7	34 090,9	42 926,9	38 417,1	13 500,3
3.	Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	29 900,1	27 807,0	29 581,6	28 482,2	3 397,7

4.	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	8 479,2	11 468,6	14 618,4	16 306,3	3 486,7
5.	Sud organlarini saqlash xarajatlari	849,8	1 117,6	1 295,4	1 622,9	355,1
6.	O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	1 037,1	965,4	760,9	1323,3	50,4
7.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg'armalari	1 401,8	1 811,0	1 720,4	2 170,1	388,7
8.	Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-qo'vvatlash xarajatlari	95,6	103,5	326,8	1 323,3	325,9
11.	Boshqa xarajatlar	31 072,1	38 107,5	44 399,4	70 257,8	14 915,1

Keltirilgan 1-jadvalda 2021–2025-yillarda (shu jumladan 2025-yilning I choragida) davlat budjeti xarajatlarning yo'nalishlar kesimidagi holati aks ettirilgan bo'lib, davlat budjeti xarajatlari muttasil o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2021-yilda – 188,3 trln. so'mdan, 2024-yilda – 310,9 trln. so'mgacha ko'tarilgan. Bu 65 foiz atrofida o'sishni ko'rsatadi.

2025-yilning birinchi choragidagi ko'rsatkich (70,3 trln. so'm) yil yakuniga proporsional qilib hisoblanganda, umumiy xarajatlar 2024-yilga yaqin yoki undan ortiq bo'lishi kutilmoqda.

Ijtimoiy soha xarajatlari umumiy budjetning eng yirik qismini tashkil etgan bo'lib, 2024- yilda xarajatlar – 152,3 trln. so'm (umumiy xarajatlarning deyarli 49 foizi) asosiy qismi ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan. Xususan, ta'lim sohasiga: 2021-yildan 2024-yilga qadar 39,6 trln. so'mdan 71,2 trln. so'mgacha o'sgan. Bu 80 foiz o'sish demakdir. Sog'liqni saqlash: 23,3 trln. so'mdan 36 trln. so'mgacha o'sib, taxminan 55 foiz o'sishni ko'rsatgan. Bu holat ijtimoiy sohani davlat siyosatida ustuvor yo'nalish sifatida qaralayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy sohalarga yo'naltirilgan mablag'lar 2021-yilda 21,1 trln. so'mdan 2024-yilda 38,4 trln. so'mgacha o'sgan. Bu 80 foiz atrofida o'sish bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlar ham ijtimoiy sohalar qatorida muhim ahamiyat kasb

etayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2025-yilning I choragida bu yo'nalishga 13,5 trln. so'm ajratilgan, bu yil yakuniga nisbatan jiddiy o'sish kutilmoqda.

Investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari 2021–2024-yillarda 28–29 trln. so'm atrofida bo'lib, katta o'zgarish kuzatilmagan. Bu davlatning investitsion siyosatda barqaror yo'l tutganidan dalolat beradi.

Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura xarajatlari 2021-yilda 8,5 trln. so'm bo'lib, 2024-yilga kelib 16,3 trln. so'mga yetgan. Sud organlari xarajatlari nisbatan kichik, 2021-yilda 0,85 trln. so'mdan 2024-yilda 1,62 trln. so'mga o'sgan.

Davlat budjeti xarajatlarning ustuvor yo'nalishlar sifatida so'nggi besh yil davomida ijtimoiy sohalar (ayniqsa ta'lim va sog'liqni saqlash), iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va davlat boshqaruvi xarajatlari namoyon bo'lib kelmoqda. Ijtimoiy xarajatlar barqaror o'sib bormoqda, bu aholi turmush sifati va inson kapitalini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ko'rsatadi.

Davlat budjetining 2025-yil uchun xarajatlari 344,6 trln. so'm yoki YaIMning 21,1 foizi (2024-yilda 317,7 trln. so'm yoki YaIMning 22,5 foizi bo'lishi kutilmoqda) etib prognoz qilinmoqda. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida tarmoq rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga sarflanadigan xarajatlarni oshirish rejalashtirilgan.

Budjet xarajatlarining yarmidan ortig'i ijtimoiy sohalarga yo'naltirilgani mamlakatning inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosatini ko'rsatadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va sport sohalariga ajratmalar aholining turmush darajasini

oshirish, kambag'allikni qisqartirish va mehnat bozorini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Bu ustuvor yo'nalish O'zbekistonning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasida belgilangan "inson manfaati va farovonligi" tamoyiliga to'liq mos keladi.

2-jadval

Davlat budjetining xarajatlari tarkibi, 2025-yil uchun prognoz [5]

Jami:	344,6 trln so'm
Iqtisodiyot xarajatlari	39,2
Ijtimoiy soha xarajatlari	178,2
Infratuzilmani rivojlantirish xarajatlari	27,4
Davlat qarziga xizmat ko'rsatishning foiz xarajatlari	21,1
Davlat boshqaruvi, adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	18,6
Vazirlar Mahkamasi va mahalliy budjetlarining zaxira jamg'armalari	1,8
O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash hamda Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab qo'vvatlash xarajatlari	1,4
Boshqa xarajatlar	56,9

Iqtisodiyot xarajatlari (39,2 trln. so'm) orqali mamlakat iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalaridagi qo'llab-quvvatlash dasturlariga maqsadli yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Ajratilgan mablag' davlat budjeti xarajatlarining 11 foiz atrofida ulush iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va kichik biznes-

sohalarga imtiyozlar berishda muhim rol o'ynaydi deb hisoblaniladi.

Infratuzilmaviy sarmoyalar – transport, yo'llar, energiya tarmoqlari va suv xo'jaligini rivojlantirishni qamrab oladi. Infratuzilma xarajatlari (27,4 trln. so'm) 8 foiz ulush kelgusi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Bu kapital xarajatlar bo'lib, davlatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi uchun strategik ahamiyatga ega.

3-jadval

2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan moliyalashtiriladigan joriy va kapital xarajatlar miqdori (mln. so'm) [6]

Nº	Ko'rsatkichlar	Summa
Respublika budjetidan ajratiladigan mablag'lar, jami:		281 623 626,8
	Shu jumladan:	
1.	joriy xarajatlar	203 131 892,2
	shundan:	
1.1	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	31 113 073,9
1.2	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	11 552 552,0
1.3	davlat maqsadli jamg'armalariga transfertlar	33 303 731,9
1.4	O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi transfertlar	18 462 200,0
1.5	qayta taqsimlanadigan mablag'lar	15 173 250,6

2025-yil uchun O'zbekiston moliyalashtiriladigan joriy xarajatlar umumiy Respublikasining respublika budjetidan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etadi:

203 131 892,2 mln. soʻm bu taxminan 72 foizini tashkil etadi. Rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar – 31 113 073,9 mln. soʻm mablagʻ bilan iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangi islohotlarni moliyalashtirishga yoʻnaltiriladi. Davlat maqsadli jamgʻarmalariga transfertlar (33 303 731,9 mln. soʻm) pensiya jamgʻarmasi, ijtimoiy muhofaza, yoʻl jamgʻarmasi kabi yoʻnalishlarga taqsimlanib sarflashtirilishi rejalashtirigan. Qoraqalpogʻiston, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida ajratilgan tartibga soluvchi transfertlar – 18 462 200,0 mln. soʻm mablagʻlar ham joriy xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash boʻyicha kapital qoʻyilmalar mamlakat infratuzilmasi, ijtimoiy obyektlar (maktab, shifoxona, yoʻllar, kommunikatsiyalar) qurilishiga yoʻnaltiriladi (11,5 trln. soʻm).

2025-yilda Oʻzbekiston davlat budjeti xarajatlarning asosiy qismini joriy xarajatlar tashkil etmoqda. Bu aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash va davlat xizmatlarini moliyalashtirish uchun zarur. Biroq, kapital xarajatlar ulushini koʻproq oshirish investitsiya faolligini, infratuzilma sifatini va iqtisodiy oʻsish surʼatlarini jadallashtiradi. Shu bois, strategik istiqbolda joriy xarajatlarni optimallashtirib, kapital qoʻyilmalarga koʻproq resurs ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillardan koʻrinib turibdiki, davlat budjeti xarajatlari ijrosida davlat xaridlari amaliyoti mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida strategik ahamiyatga

ega boʻlgan sohadir. Davlat xaridlari orqali budjet mablagʻlaridan samarali foydalanish, iqtisodiyotning ustuvor yoʻnalishlarini qoʻllab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Olib borilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda davlat budjeti xarajatlari muttasil oʻsib bormoqda va ularning katta qismi ijtimoiy sohalarga yoʻnaltirilmoqda. Ayniqsa, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohalariga ajratilgan mablagʻlar aholining turmush sifatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy xarajatlar va investitsiyalarni moliyalashtirish mamlakat iqtisodiyotida barqarorlik va oʻsishni taʼminlaydi.

Davlat xaridlari tizimini samarali yoʻlga qoʻyish uchun:

- ❖ tender jarayonlarini shaffof va ochiq oʻtkazish;
- ❖ raqobat muhitini kuchaytirish;
- ❖ elektron xaridlar tizimini yanada rivojlantirish;
- ❖ xalqaro tajriba va milliy amaliyotni uygʻunlashtirish;
- ❖ moliyaviy nazorat va monitoringni kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari amaliyoti nafaqat davlat budjeti mablagʻlaridan samarali foydalanishni taʼminlaydi, balki mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, davlat boshqaruvida shaffoflik va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, davlat xaridlari tizimini takomillashtirish Oʻzbekiston moliya siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Hajduchova, M.Sedliacikova, I.Viszlai. "Value-added Tax Impact on the State Budget Expenditures and Incomes. [Value-added Tax Impact on the State Budget Expenditures and Incomes - ScienceDirect](#)
2. J.R.Zaynalov, S.S.Alieva, N.E.Ernazarov, Sh.M.Latipova. *Budjet-soliq siyosati. Samarqand – 2023. – 23 bet.*
3. T.S. Malikov. *Moliya. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisodchi-moliya. 2018. -169 bet.*

4. O'zbekiston Respublikasi Budget siyosati yillik hisobotlari.
5. Fuqarolar uchun budget 2025 loyiha. https://api.mf.uz/media/document_files/Budjet_P_25_uz.pdf
6. "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/7277618>